

TILSHUNOSLIKDA NUTQIY FAOLIYAT VA NUTQIY STRATEGIYANING PRAGMATIK IFODASI TAHLILI

Baymuradova Laylo Kaxramonovna,

Qarshi davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Har qanday nutqiy ifoda bir vaqtning o'zida muloqot vositasi va shuningdek, ma'lum maqsadga, vazifaga erishish vositasi ekanligi bilan ham izohlanadi. Nutq jarayoni insonlar o'rtasidagi munosabatlarning barcha qatlamlarini qamrab oladi. Muloqot jarayonida suhbatdoshini o'ziga ishonтира olish, yetkazayotgan ma'lumotga jalb qilishda nutq strategiyasini ishlab chikish, muloqot imkoniyatini o'zida aks ettiradigan muloqot jarayonidagi taktikalarga ega bo'lish, qapshi tomon bilan bahs munozaralarga kirisha olish, bahslashish qobiliyati, shuningdek, tegishli til vositalarini qo'llash imkoniyatini o'z ichiga olgan nutq ta'siri usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, muloqot jarayonida suhbat, nutqiy faoliyat, bilimlarni o'zaro munosabati, insonning nutqiy faoliyati;

ANALYSIS OF PRAGMATIC EXPRESSION OF SPEECH ACTIVITY AND SPEECH STRATEGY IN LINGUISTICS

Baymuradova Layla Kahramonovna,

Karshi State University Doctor of Philology (PhD)

Abstract. Any speech expression is explained by the fact that it is simultaneously a means of communication and also a means of achieving a certain goal, task. The speech process covers all layers of human relations. In the process of communication, the ability to convince the interlocutor, to develop a speech strategy to attract the information conveyed, to have tactics in the communication process that reflect the possibility of communication, to be able to enter into discussions with the opposite party, the ability to argue, as well as the ability to use appropriate language tools. It is important to use methods.

Key words: linguistics, conversation in the process of communication, speech activity, interaction of knowledge, speech activity of a person;

АНАЛИЗ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ВЫРАЖЕНИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РЕЧЕВОЙ СТРАТЕГИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Баймурадова Лейла Кахрамоновна,

Каршинский государственный университет доктор филологических наук (PhD)

Аннотация. Любое речевое выражение объясняется тем, что оно одновременно является средством общения, а также средством достижения определенной цели, задачи. Речевой процесс охватывает все слои человеческих отношений. В процессе общения умение убеждать собеседника, вырабатывать речевую стратегию для привлечения передаваемой информации, иметь в процессе общения тактику, отражающую возможность общения, уметь вступать в дискуссию с противоположной стороной, умение спорить, а также умение использовать соответствующие языковые средства. Важно использовать методы.

Ключевые слова: языкознание, разговор в процессе общения, речевая деятельность, взаимодействие знаний, речевая деятельность человека;

O'z navbatida, nutqiy faoliyat muloqot tarkibida faollashadi. Muloqot tarkibi ham boshqa funksional sistemalar singari o'z invariant birliklariga ega. Ularning tahlili ma'lum faoliyat turlarining mazmuniy tarkibini tashkil qiladi[1]. Nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi perlokutiv akt nomini olgan[2]. Perlokutiv akt nutqiy jarayonning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Nutqiy jarayonning keyingi kechimi muloqotdosh borasida, muloqot mavzusi, muloqot maqsadi borasidagi bilimlarga ega bo'lish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun faqat mazkur bilimlarning o'zaro munosabatini hisobga olgandagina, biz nutqiy jarayonning mohiyatini anglashga yaqinlashgan bo'lamiz. Nutqiy muloqot jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang, chunonchi: ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va hokazolar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Nutqiy muloqot jarayoni ijtimoiy va tabiiy jarayon bo'lganligi sababli,

pragmatikada nutqiy muloqot jarayoni inson faoliyatining o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun sistem tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika muloqot, o'zaro fikr almashuv, kommunikativ maqsad, shaxslararo munosabatlar, muloqot kechimi, muloqot faolligi, nutqiy strategiya kabi so'zlashuv tizimini o'rganadi. Nutqiy muloqot jarayoniga ma'lum tizim sifatida yondashish pragmatikaning asosiy tadqiq manbai va usuli sanaladi. Pragmatikaning muayyan vaziyatda yetkazilgan ma'lumotning tinglovchiga bo'lgan ta'sirini o'rganadigan bo'limi kommunikativ strategiya atamasi bilan nomlanadi. Mazkur ta'sir etishning maqsadli hatti-harakati nutqiy strategiya doirasida o'rganiladi. O'z navbatida, pragmatik lingvistik nutqiy muloqotning samarali kechishini yaxlit bir tizim sifatida, muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha lisoniy va nolisoniy omillari bilan uzviy bog'liqlikda, hamkorlikda o'rganuvchi fan hisoblanadi. Pragmatikaning lug'aviy ma'nosi yunoncha "pragma" so'zidan olingan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda "ish, harakat" ma'nolarini bildiradi.

Ma'lumki, til shaxslararo o'zaro muloqotga kirishilganda harakatda bo'ladi, nutqqa aylanadi. Demak, pragmatika nutqiy muloqot jarayonida sodir bo'ladigan nutqqa aloqador bo'lgan barcha hodisalarni, vaziyatlarni o'rganadi[3]. Shuningdek, pragmatika tilda mavjud belgilarning nutqdagi amaliy qo'llanishini o'rganadigan tilshunoslikning muhim tadqiqot ob'ekti ham hisoblanadi. Lingvistik pragmatikaning tadqiqot ob'ekti keng qamrovli bo'lib, nutqiy aktlar tahlili, diskurs, matnning og'zaki hamda yozma shakllari, matnning alohida turlarining lingvistik, kommunikativ voqelanishi tahlilini qamrab oladi. M. Hakimovning qayd etishicha kommunikativ niyatning ifodalanish darajasiga ko'ra ifodaning oshkora va yashirin shakllari mavjud bo'ladi. So'zlovchi nutqiga xos ifodaning oshkora yoki yashirin shakllari kommunikativ strategiya uchun yo'l ochadi. Shuningdek, uning tahlil tarkibiga so'zlovchi va tinglovchi, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabati, shaxslararo munosabatda lisoniy birliklarning faollashuvi, muloqot qurilishi, muloqotni maqsadini tashkil qiluvchi omillar, nutqiy harakatlariga bog'liq masalalar majmui kiradi. Muloqot jarayoni bevosita shaxslarning axborot almashinuvi asosida quriladi. Tinglovchida axborotni eshitish jarayonida unda yetkazilayotgan axborotga nisbatan muayyan bir tasavvur paydo bo'ladi, hamda mazkur axborotga nisbatan munosabat yuzaga keladi. Bu munosabat pragmatik munosabat deb yuritiladi. Bunday munosabatlar turlicha xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ular ko'p hollarda intellektual xususiyatga ega bo'lib, u tinglovchi (adresant) uchun qiziq tuyulmaydigan, unga taalluqli bo'lmagan axborotlardan tashkil topgan bo'lishi va ayni paytda qabul qilingan axborot unga juda kuchli emotsional ta'sir qilishi, hamda ma'lum fikr, g'oya, munosabatlarni yuzaga keltirishi va shu asosda ma'lum hatti-harakatlarga yo'naltirishi mumkin. Axborotni qabul qiluvchida yuzaga keladigan bu kabi kommunikativ ta'sir pragmatik munosabatining muhim aspekti yoki salohiyati[4] sifatida talqin qilinadi.

So'zlovchi va tinglovchi munosabatining pragmatik ifodasi nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi. Nutqiy harakat esa muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot matni kommunikativ mazmunga ega bo'ladi hamda qator omillardan, ya'ni maqsad, motiv, strategiya kabilardan tashkil topadi. Kommunikativ jarayonda so'zlovchi va tinglovchining ishtiroki, maqsadi, vazifasi, muloqot maqsadi, muloqot kechimiga ko'ra turlicha bo'ladi. So'zlovchi tinglovchining muloqot tarzi, ko'zlangan muloqotning mazmuniga bo'lgan munosabatini hisobga olishga majbur[1]. Muloqot yuzaga kelishi uchun kommunikativ muhit bo'lishi darkor. Kommunikativ muhit, o'z navbatida, ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy qatlamdagi shaxslarning ijtimoiy guruhning madaniyati, ma'lum etnosga xos milliy-madaniy tushunchalari, intellektual bilimi, ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Aynan shu asosda muloqot kechimi belgilanadi, maqsad aniqlanadi, kommunikativ va nutqiy strategiyalar ishlab chiqiladi. Har bir guruhda turli muloqot vaziyatlari yuzaga kelishi mumkin. Mazkur hollarda muloqot ishtirokchilari yuzaga kelgan ma'lum anglashilmovchiliklarni ikkiyoqlama hosil bo'lgan ma'lum noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradigan umumiy bilim zaxirasiga hamda muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlovchi qoidalardan foydalanish malakasiga ega bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi. Muloqotdoshlarning bir birini tushunishi, axborot almashishi lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham lisoniy muloqot pragmatika doirasida nutqiy muloqot jarayonining inson faoliyatiga aloqador bo'lgan o'nlab qirralarini bir-biri bilan bog'lagan holda o'rganadi.

Lisoniy muloqot qobiliyatining o'zi kognitiv va kommunikativ vazifalar umumlashmasi bo'lgan maqsadga erishishda lisonidan foydalana olish qobiliyati[2] tarzida namoyon bo'ladi. Nutqiy muloqot jarayonini o'rganish mobaynida presuppozitsiya lingvistik hodisa sifatida tahlil etiladi. Muloqot jarayonidagi muvaffaqiyatning dastlabki shartlari va fikrlarini o'rganishda qo'llaniladigan so'zlarning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratilmasdan ifoda etilayotgan bayonotlar, ularni ishlatilishi, mazkur

bayonotlarni qo'llash uchun yuzaga kelgan omillar borasidagi bilimlar kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradi[5]. Nutqiy muloqotni o'rganishga bo'lgan pragmatik yondashuv muloqotga kirishuvchilar maqsadi va presuppozitsiya orasidagi o'zaro munosabatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Presuppozitsiya hodisasiga bo'lgan turli yondashuvlar ushbu tushunchaga nisbatan ishlatilgan turli xil tavsiflar mavjud. Jumladan, presuppozitsiyaning keng tarqalgan tavsiflarida turli ma'lumotlar, umumiy bilimlarning keng miqyosda qo'llanilishi, muloqot jarayonida til birliklarining lug'aviy ma'nolarini to'g'ri tushunish borasidagi fikrlar bildiriladi[6]. R.Stalneyker esa nutqiy muloqotga pragmatik yondashuv orqali tahlilda presuppozitsiyani muloqot ishtirokchilarining gapiruvchi tomonidan amalga oshirilgan umumiy asosini (umumiy bilimlari) tashkil etuvchi hodisa sifatida ta'riflaydi[7].

Nutqiy muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Nutqiy muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayon sanalib, o'zaro nutqiy muloqot kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi. Kommunikativ jarayon odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. U insondagi eng muhim ehtiyojini, ya'ni jamiyatda yashash va o'zini shaxs sifatida faoliyat yuritishi bilan bog'liq ehtiyojini qondirish sanaladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi faoliyatni tashkil qilish uchun nutqiy muloqot har bir inson uchun ahamiyatlidir. Muloqot jarayonida pragmatik vazifalar kommunikativ maqsad doirasida voqelanadi. Shuning uchun ham nutqiy harakat natijasida yuzaga keladigan perlokutiv ta'sirni pragmalingsvistik tahlil doirasiga kiritish taklifi[2] yuzaga keldi. Muloqot jarayoni kommunikativ (axborot uzatish) interaktiv (o'zaro ta'sir) va perseptiv (o'zaro idrok etish) kabi amallar asosida quriladi. Z.Vendler talqinicha, illokutiv maqsad aslida, «mental harakat bo'lib, so'zlovchi tinglovchini ushbu harakatni bajarishga undaydi»[8]. Bu maqsad esa ma'lum nutqiy strategiyalar, nutqiy taktikalar yordamida amalga oshiriladi. Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan faolliklari natijasida bir birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni har bir shaxsning jamiyatdagi faoliyati (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) asosida o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sir shakllari, o'zaro hamkorlik, raqobat turlari hosil bo'ladi. Chunki, har qanday faoliyat insonlarning bir birlari bilan muloqotga kirishishi, munosabatlarni shakllantirishi, turli masalalarni muhokama qilishi, bir-biriga turlicha ma'lumotlarni uzatishi, qarama-qarshiliklarga borishi, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikda kechadi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni faoliyatidagi muvaffaqiyati, jamoadagi obro'si uning muloqotga kirishish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Shaxslarning mazkur jamiyatdagi faoliyati o'zaro munosabatlarning qay darajada samarali amalga oshirilishiga ham bog'liq. O'zaro hamkorlikda, munosabatlarning maqsadli kechimida muloqot muhiti muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot esa ma'lum kommunikativ va nutqiy strategiyalar asosida quriladi. Ko'rinadiki nutqiy muloqot strategiyasi ma'lum bir muloqot maqsadiga erishishga qaratilgan oddiy nutqiy ketma ketliklardan farqli hodisa hisoblanadi. Nutqiy harakatlar, nutqiy amallar ketma ketligi kommunikativ hodisaning voqelanishini bildiradi. Nutqiy strategiya esa o'sha voqelanishda markaziy o'rinda turadi. Nutq yaratilishi jarayonida so'zlovchi o'z nutqini tinglovchining reaksiyasiga qarab o'zgartirib boradi. Ta'kidlash lozimki, nutqni rejalashtirish hamda uning voqelanishi deyarli bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Inson har doim ham o'z nutqining qanday shaklda ifodalanishini oldindan bilavermaydi, chunki bir jumla yoki so'z boshqa jumla yoki so'zni aytishni taqozo qiladi. Kognitivistlar fikriga ko'ra, bu jarayon grammatik monitor qurilma (monitoring) nazorati ostida kichadi[9].

O.S.Issers kommunikativ strategiyalarning nazariy tizimi tahlilini amalga oshiradi. Unda muallif kommunikativ strategiyaning modeli sifatida lisoniy tanlov tizimiga murojaat qiladi. Nutqiy jarayonda qo'llaniladigan lisoniy vositalar kommunikativ strategiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan asosiy strategiyalarga e'tibor qaratiladi. Bunda ma'lumot yetkazish; ma'lumotni tahrirlash, olingan ma'lumotlarni subordinatsiya qilish kabi strategiyalar nazarda tutiladi. O.S.Issersning fikriga ko'ra, yordamchi strategiyalar kommunikativ jarayonni samarali interfaol tashkil etishga ko'maklashadi va quyidagicha turlarga bo'linishi mumkin; pragmatik imidjni yoki obrazni yaratish, emotsional jarayonni shakllantirish, muloqot kechimida mavzu ustidan nazorat qilish, tashabbuskorlikni nazorat qilish va ritorikaga ya'ni diqqatni jalb qilish, drammatizatsiya usulidan foydalanish[10] kabilar kiradi. Kommunikativ strategiyalarning muloqot kechimida faollashuvi, qo'llanishi ham qator usullar, vositalardan foydalanishni, pragmatik mazmunga e'tibor qaratishni talab etadi. Jumladan, K.Ye.Kalinin o'z ishida quyidagi muloqot strategiyalarini, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ishlatiladigan

usullarni, texnikani va vositalarni belgilaydi:

1) Taqdimot strategiyasi: soʻz taktikasi, shaxsiy tajriba namunasi, ijobiy emotsional holatning paydo boʻlishi;

2) Chaqiruv strategiyasi: murojaatlar, mulohazalar, ishonchli taqdimot, soʻzlovchining samimiyligi;

3) Oʻz-oʻzini namayon qilish strategiyasi: tanqid, raqiblarga nisbatan ustunlikni namoyish etish, ijobiy qiyofani oʻrnatish, kalit soʻzlardan foydalanish, parallelizm, nutqning strukturaviyligi, eʼtirozni emotsional tarzda namoyish qilish;

4) Raqibga nisbatan obroʻsizlantirish strategiyasi: mantiqiy dallillarni keltirish taktikasi, dalillarni namoyish qilish, axborotni tanlab olish va kerakli sharxlarni talqin qilish, chaqiruv, salbiy imidj (obrazni) yaratish, avtoritar fikrlar bildirish[11].

Muallif taʼkidlab oʻtgan strategiyalar maʼlum maʼnoda siyosiy imidjga qaratilganligini anglash mumkin. Shuning uchun ham, K.Ye.Kalinin ushbu strategiyalarni ishontirish strategiyasining turlari sifatida baholaydi. Keltirilgan strategiya turlarining asosiy maqsadi birinchidan adresatning jismoniy va intellektual faoliyatini boshqarishga qaratilgan boʻlsa, ikkinchidan, barcha holatlarda adresantning tinglovchi oldidagi nutqi mavjudligi[11] bilan aloqador hisoblanadi. Ijtimoiy muloqot strategiya va taktikani shakllantirishda muloqot vaziyati va nutq davomida baʼzi amaliy natijalar (masalan, shartnomani imzolash, loyihani amalga oshirish, birgalikda qaror qabul qilish) muvaffaqiyatga erishilgandan soʻng, adresat biznes hamkor boʻladimi yoki ommaviy auditoriyami, birinchi navbatda ishonchli muloqot strategiyasiga eʼtibor qaratiladi. Muloqotdoshlarning sifatlari muloqot tizimida qanchalik muhim oʻrinni egallamasin, har holda bu tizimning markazida kommunikantlarning ijtimoiy roli turadi. Muloqot ishtirokchilarining aynan shu xarakteristikasi nutqiy faoliyatning «qay darajada joriylanishiga obʼektiv va subʼektiv ravishda oʻz taʼsirini koʻrsatuvchi omil boʻlib xizmat qiladi»[12].

Dissertatsiyadan oʻrin olgan kommunikativlik va muloqot tushunchalarini ham farqlab oʻtish lozim. Kommunikativlik muloqotga nisbatan kengroq maʼnoga ega boʻlib, baholanishi, modellashtirilishi, boshqarilishi mumkin. Hozirgi informatsion jamiyatda boshqaruv tizimi kommunikativ modellar asosida quriladi. Muloqot jarayonini toʻgʻri tuzish orqali butun boshqaruv tizimini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish, ijtimoiy masalalarni yechimini yengillashtirish mumkin. Kommunikativlik, shuningdek, maʼlumotlar almashish, maʼlumotlarni toʻgʻri talqin qilishda, maʼlumot yetkazishda til vositalari, nutq vositalarining samarali yoʻllarini topishga ham qaratiladi. Mazkur xatti-harakatlar kommunikativ strategiya tanlash orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham kommunikativ strategiya nutq faoliyati bilan uzviy bogʻliqlikka ega sanaladi. Kommunikativ strategiya faollashuvi nutqiy strategiyada yuzaga keladi. Nutq strategiyasi bevosita nutq vaziyati bilan aloqador boʻlib, nutqiy strategiya turli vaziyatlarda turlicha qurilishi mumkin. Muloqot jarayonida nutqiy strategiya muloqot kechimining samarali amalga oshirilishiga qaratilsa, siyosiy maydonda global masalalarni yechishga, iqtisodiy sohada moddiy foyda oʻzlashtirilishiga yoʻnaltiriladi. Taʼkidlash joizki, ijtimoiy kesimda kommunikativ strategiya nafaqat moddiy, balki maʼnaviy foyda olish uchun ham qoʻllanilishi mumkin.

Kommunikativ strategiya doimo nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi. Qoʻllanilgan strategiyaning samarali boʻlishi nutq vaziyatining adresant tomonidan boshqarilishini taʼminlaydi. Shuningdek, nutq vaziyati tahlili, baholanishi ham aynan adresant tomonidan amalga oshiriladi. Nutqiy strategiya esa butun muloqot jarayonida dialogning qurilishini taʼminlash maqsadida paydo boʻladi. Nutqiy strategiya maʼlum muloqot jarayoniga xos boʻlgan ijtimoiy, psixologik, emotsional xususiyatlar bilan bogʻliq boʻlib, soʻzlovchi yoki tinglovchilarning maqsad, istak-xohishlari asosida amalga oshiriladi. Nutqiy strategiya dialog yoki muloqot jarayonida nutqiy muomala modellari (oddiy salomlashish, formal suhbat usullari va shu kabilar) tarzida, shuningdek, nooddiy muloqot usullaridan (luqma tashlash, fraza, maqol, matal kabilar yordamida) foydalanish bilan hosil qilish mumkin. Umuman olganda kommunikativ strategiya tahlili quyidagilarni eʼtiborga oladi:

- kommunikativ vaziyat yuzaga kelishidan oldingi holat tahlili;
- muomala modelini belgilash;
- belgilangan model asosida muloqot yurishlarini rejalashtirish, nutq va muomala usullarini aniqlashtirish;
- strategiya tuzilishini maqsad va motivga moslashtirish;
- maqsad qilingan kommunikativlikka erishish.

“Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bogʻliq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bogʻliqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga taʼsir

etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofizilogik aspektini tashkil etadi"[12]. Kommunikativ strategiya aniq muloqot vaziyatida strategiyani amalga oshirishga qaratilgan usullarni bajaruvchi taktika orqali amalga oshiriladi. So'zlovchi ongida mavjud bo'lgan va ko'zlangan kommunikativ maqsadga erishish imkonini beradigan nutqiy tuzilmalar majmuasi ushbu shaxsning pragmatik zahirasi va imkoniyatidir[2]. O'z navbatida, kommunikativ taktika muloqotning real o'zaro ta'siri, kechimi jarayonida qo'llaniladigan amaliy yurishlar majmui sifatida baholanadi. Kommunikativ taktika aniq vaziyatlarda mo'ljallangan maqsadga va natijaga erishilishda asosiy vazifani bajaruvchi nutqiy ifoda usulidir. Verbal muloqot jarayonida taktikaning amalga oshirilishini ta'minlovchi vositalar sifatida turli sathdagi nutqiy vositalar qo'llaniladi. O.S. Issersning fikricha, "...nutq harakati strategiyasi uzoq muddatli kutilayotgan natijalarga erishish maqsadida muloqot jarayonini barpo etishning barcha yo'nalishlarini qamrab oladi»[14]. Umumiy ma'noda nutq strategiyasi muloqotning aniq bir shart- sharoitlarini adresantning va kommunikatsiya jarayonida rejalashtirilgan reja va maqsadlarni amalga oshirilishining lisoniy usuli tushuniladi. Shunday qilib, nutq strategiyasi muloqot maqsadiga erishish uchun mo'ljallangan nutq harakatlar majmui shaklida ifodalanishi mumkin. Nutqiy strategiya kommunikativ maqsadga erishishga yo'naltirilgan murakkab nutqiy harakatlar majmuasi bo'lib, muloqotdosh shaxsidan kelib chiqqan holda muloqot jarayonini rejalashtirish[15], muloqot jarayonida muloqotdoshlarning o'zaro munosabatlari va nutqiy vaziyatda nutqiy strategiyani o'zgartirishga[16] olib kelishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, kommunikativ strategiya faqatgina adresant tomonidan tuzilib qolmasdan, balki adresant tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Mazkur vaziyat adresantning so'zlovchi taklifi, ma'lumoti, buyrug'i kabilarni qabul qilishi, ayblovni qisman yoki to'laligicha tan olishining nutqiy kechim rejasini ifoda usullarini ishlab chiqilishi hamda taklif, buyruqga rad javobini berish, ayblovni tan olmaslik kabi pragmatik ifoda usullarini shakllantirishda yuzaga keladi. Ayblovni tan olmaslik, rad javobini berish usullari quyidagi til vositalarida ifodalanishi mumkin:

- ayblov borasidagi ma'lumotdan bexabarlik ifoda usulini qo'llash;
- ayblovni noto'g'ri yo'naltirilganligini isbotlashga qaratilgan ifoda;
- o'zini oqlash imkoniyatlarini ishga solish;
- taklifni amalga oshirishdagi imkoniyatsizligini namoyish etish (uning kompetensiyasiga kirmasligi, bajarishni qo'lidan kelmasligi va shu kabi bahonalar majmuini shakllantirish);
- o'sha paytda bajarish imkoniyatini yo'qligini namoyish etish (boshqa mashg'ulot bilan bandlikka yoki kattaroq lavozimdagi shaxs topshirig'iga ishora orqali);
- to'g'ri javobdan qochish (ha yoki yo'q) yo'llarini shakllantirish.

Xulosa. Mazkur hollarda muloqot initsiatori, ya'ni adresantning kommunikativ strategiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi va aksincha, adresantning kommunikativ taktikasi amalga oshishi mumkin. Ko'rinadiki, kommunikativ strategiya o'zaro muloqotni maqsadi asosida adresantga ta'sir etish modellarini nazariy va amaliy shakllantirish hisoblansa, nutqiy strategiya o'zaro muloqot kechimida nutq vositalari, lisoniy va nolisoniy usullarni qo'llash orqali amaliy natijaga erishish vositasi sifatida baholaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафаров Ш. Лингвистика дискурса. Челябинск. ЧГИК. 2018. – С. 136.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2008. – С. 82.
3. Баженова И.С. Эмоции, прагматика, текст. М.: Издательство «Менеджер», 2003. – С. 56.
4. Русакова О. Ф. Дискурс, политический дискурс, политическая дискурсология // Многообразие политического дискурса. Екатеринбург, 2004. – С. 23.
5. Арутюнова Н.Д. Практическое рассуждение и язык. Сб. : “Сущность, развитие и функции языка”. М: Наука, 1987. – С. 5- 12 (220 с).
6. Т. А. ван Дейк. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. - Вып. 8. Лингвистика текста.М.: Прогресс, 1978. – С. 259-336.
7. Столнейкер Р. Прагматика // Новое в зарубежной лингвистике Вып. Лингвистическая прагматика. М.: Прогресс, 1985. – С. 419-438.
8. Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. XVI. – М.: Прогресс, 1985. – С. 238-250.
9. Худойберганаева Д., Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 41.

10. Иссерс О. С. Речевое воздействие. - М.: Флинта: Наука, 2011. – С. 224.
11. Калинин К. Е. Коммуникативные стратегии убеждения в англоязычном политическом дискурсе : дис. канд. филол. наук. - Н. Новгород, 2009. – С. 83.
12. Мўминов С., Расулов Қ. Комуникантларнинг ижтимоий роли ва нутқий мулоқот ҳақида // Услубшунослик ва фразеологиянинг долзарб муаммолари. - Самарқанд: СамДУ, 2007. – С. 71.
13. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий - лисоний хусусиятлари. ДДА.-Т., 2000. – Б. 44.
14. Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Омск: Изд-во Омск. гос. ун-та, 1999. – С. 157.
15. Ларина Т.В. Доминантне чертм английского вербального коммуникативного поведения // Филологические науки, 2007. № 2. – С 71-81.
16. Сухих С.А. Речевые интеракции и стратегии // Языковое общение и его единицы. – Калинин: КТУ, 1986. – С. 72